

Xulosa qilib aytganda, taklif etilayotgan yondashuv nafaqat moliyaviy rentabellikni, balki ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlikni ham ta'minlovchi barqaror iqtisodiy modelning asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ilmiy yechim O'zbekistonning "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Agustin, H., & Ahmad, N. (2024). *Integration of Maqasid al-Shariah and ESG Principles in Islamic Fintech*.
2. IFSB. (2025). *Stability Report: Sustainability and ESG Standards in Islamic Finance*.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. PF-158-son.
4. AAOIFI. (2024). *Sustainability Reporting Standards for Islamic Financial Institutions*.
5. Rahmonov, Sh. (2025). *Hududiy investitsiya loyihalarini baholashda ESG indikatorlarini qo'llash (Qashqadaryo misolida)*.
6. Muhamad, R. (2022). *Maqasid al-Shariah orqali ijtimoiy SROI ko'rsatkichini baholash*.

SUG'URTA FAOLIYATIDA KAPITAL QO'YILMALAR VA ULARNING MOLIYAVIY MANBALARI

Yakubov Sanjarbek Fozilbekovich

Toshkent davlat agrar universiteti, "Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit" kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada kapital qo'yilmalar sug'urta tashkilotlari faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydigan strategik resurs va ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini kengaytirish, modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun sarflanadigan mablag'lar sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: kapital qo'yilmalar, investitsiyalar, sug'urta, real kapital qo'yilmalar, moliyaviy kapital qo'yilmalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qo'yilmalar iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kapital qo'yilma – bu ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotning turli sohalariga moddiy, moliyaviy va nomoddiy aktivlar shaklida yo'naltiriladigan mablag'lardir³²³.

Kapital qo'yilmalar mohiyatan korxonalar, jumladan sug'urta tashkilotlari faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydigan strategik resurs hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kapital qo'yilma keng ma'noda ishlab chiqarishning moddiy-texnik bazasini kengaytirish, modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda intellektual salohiyatni rivojlantirish uchun sarflanadigan mablag'lar sifatida talqin qilinadi.

Iqtisodchi olimlar kapital qo'yilmalarni turli jihatdan izohlaydilar. Masalan, klassik iqtisodiy maktab vakillari (A. Smit, D. Rikardo) kapitalni ishlab chiqarish jarayonining asosiy omili sifatida ko'rib, uni jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi bog'liqlik orqali izohlashgan. Zamonaviy maktabi vakillari esa (J.M.Keyns, P.Samuelsan, F.Modilyani va

³²³ Rejda, G. E., McNamara, M. J. Principles of Risk Management and Insurance. – Pearson Education, 2021. – 721 p.

boshqalar) kapital qo'yimalarni ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, bandlikni oshirish va milliy daromad o'sishining asosiy drayveri sifatida baholaydilar³²⁴.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham kapital qo'yimalarga aniq ta'rif berilgan. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunda (26.12.2019 y., № O'RQ-598-son) kapital qo'yimlar kapital investitsiyalar tarzida ifodalangan bo'lib, asosiy fondlarni yaratish va takror ko'paytirishga, shu jumladan yangi qurilishga, modernizatsiya qilishga, rekonstruksiya qilishga, texnik jihatdan qayta jihozlashga, shuningdek moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarga aytiladi³²⁵.

Kapital qo'yimlar odatda real va moliyaviy turlarga ajratiladi.

Real kapital qo'yimlar – bu ishlab chiqarish vositalarini yangilash, bino-inshootlar qurish, texnologiyalarni modernizatsiya qilish kabi real aktivlarga yo'naltiriladigan sarmoyalar.

Moliyaviy kapital qo'yimlar esa qimmatli qog'ozlar, depozitlar, kreditlar, obligatsiyalar yoki boshqa moliyaviy instrumentlarga kiritiladigan mablag'lardir.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida, asosan, moliyaviy kapital qo'yimlar ustunlik qiladi, chunki ular o'zining mavjud zahira mablag'larini turli investitsiya yo'nalishlariga (bank depozitlari, davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ obligatsiyalar, ko'chmas mulk va boshqalar) joylashtirish orqali daromad oladilar. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarining kapital qo'yimlari faqat daromad olishga emas, balki ularning to'lovga qobiliyatini va moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi³²⁶.

Sug'urta tashkilotlarida kapital qo'yimlar ularning iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, investitsion faoliyatni rivojlantirish hamda raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasi qancha ko'p va samarali kapital qo'yimalarga ega bo'lsa, u shuncha moliyaviy barqaror bo'ladi, ya'ni sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshiradi, zahira fondlarini to'ldira oladi va yangi xizmat turlarini joriy etish imkoniga ega bo'ladi.

Kapital qo'yimlarni samarali boshqarish sug'urta tashkilotlari uchun strategik ahamiyatga ega. Ularning investitsion faoliyati nafaqat daromad olish, balki uzoq muddatli barqarorlikni saqlab qolish, risklarni kamaytirish va kapitallashuv darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlarida kapital qo'yimlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- davlat obligatsiyalari va depozit sertifikatlariga sarmoya kiritish;
- korporativ qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- bank tizimi orqali kreditlash va depozit qo'yish;
- ko'chmas mulkka investitsiya kiritish;
- o'z infratuzilmasini rivojlantirish (axborot texnologiyalari, filiallar tarmog'i va boshqalar).

Shunday qilib, kapital qo'yimlar sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini ko'paytirish, ularning investitsion salohiyatini oshirish va iqtisodiy risklarni kamaytirish vositasi hisoblanadi.

³²⁴ Jo'rayev M.M. Sug'urta faoliyati nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 529 b.

³²⁵ "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-598-son 2019 yil 26 dekabr.

³²⁶ Turaev, A. T. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital siyosati. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3, 2022.

Sug'urta tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi, moliyaviy barqarorligi va investitsion salohiyati, avvalo, ularning kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish manbalari va shakllarining to'g'ri tanlanishiga bog'liqdir. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish – bu sug'urta kompaniyalarining mavjud yoki jalb etilgan moliyaviy resurslarini real va moliyaviy aktivlarga yo'naltirish jarayoni bo'lib, ularning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish – bu sug'urta kompaniyasining investitsion faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, u sug'urta zahiralari, ustav kapitali, qo'shimcha mablag'lar yoki tashqi manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Sug'urta tashkilotlari o'zining moliyaviy faoliyatida ikki asosiy yo'nalishda sarmoya kiritadi:

1. *Sug'urta faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan real investitsiyalar* (bino-inshootlar, IT-infratuzilma, texnologiyalar, filial tarmoqlari va boshqalar);

2. Daromad olish maqsadidagi moliyaviy investitsiyalar (depozitlar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari, korporativ qimmatli qog'ozlar va boshqalar).

Sug'urta tashkilotlari uchun kapital qo'yilmalarning asosiy xususiyati – ularning *risk darajasi past, daromadlilik barqaror* bo'lgan moliyaviy aktivlarga yo'naltirilishidir. Chunki sug'urta kompaniyalari mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun doimo likvidlikni saqlashi zarur.

Sug'urta tashkilotlarida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari ularning o'z va jalb etilgan mablag'laridan iborat bo'lib, quyidagicha tasniflanadi:

O'z manbalari:

• *Ustav kapitali* – kompaniya tashkil etilganda ta'sischilar tomonidan kiritilgan boshlang'ich mablag'lar bo'lib, u sug'urta faoliyatini yuritish uchun minimal moliyaviy kafolat vazifasini bajaradi.

• *Zahira (rezerv) kapitali* – foydaning bir qismi qayta investitsiya qilinadi va moliyaviy xavflarni qoplash, zararlarni kamaytirish hamda kutilmagan risklarga tayyor turish uchun xizmat qiladi.

• *Sug'urta zahiralari* – kompaniya sug'urta mukofotlaridan shakllantiradigan majburiyatlarni bajarish fondi. Mazkur zaxiralar qisqa muddatli bo'lsa-da, ularning bir qismi investitsiyalarga yo'naltiriladi.

• *Qoldiq daromad* – moliyaviy natijalarning bir qismi dividend sifatida taqsimlanmay, kompaniya kapitaliga qayta kiritiladi.

Jalb etilgan manbalar:

• *Bank kreditlari va moliyaviy institutlardan qarz mablag'lari* – odatda, qisqa muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Sug'urta kompaniyalari uchun qarz olish imkoniyatlari qonunchilik bilan cheklangan bo'lsa-da, bu manba moliyaviy likvidlikni ta'minlashda muhim.

• *Davlat mablag'lari va grantlar* – ayrim hollarda ijtimoiy yo'nalishdagi sug'urta dasturlarini (masalan, majburiy tibbiy sug'urta) qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan ajratiladi.

• *Xorijiy investitsiyalar* – xalqaro moliya institutlari, sug'urta guruhlari yoki xorijiy investorlarning kapital kiritmalari orqali jalb etiladi.

• ***Sug'urta qayta sug'urtalash to'lovlari*** – qayta sug'urtalash operatsiyalaridan olingan daromad ham investitsion faoliyatni moliyalashtirishda ishlatiladi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari tuzilmasi kompaniyaning moliyaviy siyosati, risk darajasi va investitsiya strategiyasiga qarab farqlanadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida asosan **ichki manbalar (o'z kapitali, zahiralar, foyda)** ustunlik qiladi, chunki tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari hali to'liq shakllanmagan.

Xulosa qilib aytganda, kapital qo'yilmalar nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantiruvchi vosita, balki sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik, rentabellik va ishonchlilikning muhim kafolatidir. Shu sababli ularning moliyalashtirish manbalari va buxgalteriya hisobini ilmiy asosda takomillashtirish zarurati hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). 2022 yil 4-aprel.
2. "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-598-son 2019 yil 26 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – PQ-4994, 2021-yil 2-fevral.
4. Jo'rayev M.M. Sug'urta faoliyati nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 529 b.
5. Turaev, A. T. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda kapital siyosati. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3, 2022.
6. Rejda, G. E., McNamara, M. J. Principles of Risk Management and Insurance. – Pearson Education, 2021. – 721 pages.

QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MOLIVAVIY QO'LLAB - QUVVATLASH ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Xakimov Zafar Ibragimovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

Jahon aholisining ahamiyatli qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni sotish yoki sotib olish, mahsulotni bozor markazlariga yetkazish, qishloq xo'jaligi xom ashyosidan yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni qayta ishlash orqali qishloq xo'jaligida bevosita yoki bilvosita band bo'lib kelmoqda.

"Jahon yalpi ichki mahsulotining asosiy qismi qishloq xo'jaligi sektorida yaratiladi va uning umumiy hajmi deyarli 5,1 trln. AQSH dollari (YAIMning 6,4 foizi)ni tashkil etadi. Bu borada ikkita yirik davlat — Xitoy va Hindiston asosiy ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Xitoyda qishloq xo'jaligini jami moliyalashtirishning 18 foizi davlat tomonidan amalga oshirilsa, AQSHda bu ko'rsatkich 5 foizni tashkil etadi"³²⁷. Bu esa qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, usul va mexanizmlarini takomillashtirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish, tarmoq mahsulotlarining bozor narxlari va korxonalar daromadlarini tartibga solishda davlat subsidiyalaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini davlat tomonidan guruhlarga bo'lgan holda boshqarish, korxonalarini sug'urtalash, risklarni davlat tomonidan xedjirlash,

³²⁷ Jahon banki ma'lumotlari; OECD report 2021 Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2021: Addressing the Challenges Facing Food Systems USA, Economic Research Service